



*Salima TURSUNOVA*

# ILTIVO

*She'rlar*

"ANDIJON NASHRIYOT-MATBAA"  
ochiq aksiyadorlik jamiyati  
2005

84(55)6-5 6адими азабиёт —  
Шеърлар



Muallif kitobning chop etilishida homiylik qilgani uchun  
Yangiqo'rg'on tumani "Iste'dodli yoshlar uyushmasi" rahbarlari  
M. A. Aslanov, R. R. Ahmedov va tuman xalq ta'limi bo'limi mudiri  
M. K. To'raboyevlarga o'z minnatdorchiligini bildiradi.

31816  
W O g,


### Tursunova, Salima.

Iltijo. She'har - Andijon, "Andijon nashriyot-matbaa" OAJ,  
2005 yil. 64 bet.

Namanganlik muallima, iste'dodli shoira Salima Tursunovanining  
she'rlarini o'qirkansiz, sir-sinoat, ehtirosga, iztirobu quvonchga, orzu-  
armonlarga to'la ayol qalbining sadolari dilingizga kuy bo'lib  
quyilayotganini his etasiz.

Bobur nomli  
Andijon viloyati kutubxonasi  
84 (5 Узб)  
T - 91

© S. Tursunova  
© "Andijon nashriyot-matbaa"  
OAJ, 2005





## **O'ZBEKISTONIM**

O'zbek elim, bobo yurtim, asriy firdavs makonim,  
Alpomishdek farzandlari bilan mashhur dostonim.  
Zamoniga yetishtirgan Bobur, Nodiraxonim,  
Afsus, sho'ro zamonida tolgan O'zbekistonim.

Me'dang bo'lisin doimo to'q, yuzing tursin nurlanib,  
Chit ko'y lakning ichida ham ko'rinarsan hur bo'lib.  
O'tirganda o'rning bo'lisin, pastda qolma xor bo'lib,  
Bobolarim shuhratidan osmon O'zbekistonim.

O'zbekiston - jannatmakon, unda nelar topilmas,  
Tashib ketilgan ma'danin aslo cheki topilmas.  
Ko'rpasini boshga tortsa, oyog'ini yopolmas,  
Alplarining yuragida armon, O'zbekistonim.

Olloh, o'zingga shukurki, mudragan el uyg'ondi,  
Ko'kragida kuyungan bir toshqin sel uyg'ondi.  
Yetmish ikki tomirdagi sovigan qon jonlandi,  
Bir asrlik uyqusidan turgan O'zbekistonim.

Bugun tabrik etish uchun har shirin so'z yarashar,  
Butun dunyo tan olib, bo'y bastingga qarashar.  
Istiqloling, iqbolingga ishonar bani-bashar,  
Deya qutlovga kelmishdir Navro'z, O'zbekistonim.

## **AYOL G'URURI**

Olamning tashvishini ko'taraman kiftimda,  
Men buyukman, ming barobar buyuklardan buyukroq.  
Hayotning qor, muzliklari parchalanar taftimdan,  
Chunki endi farzandim bor suyumlidan suyukroq.

Hayot menman, quvonch menman, men dunyon  
tebratgan,  
Men bahorman, tong saxarman, gul g'unchasin uyg'otgan.  
Men ayolman, onaman men, faxrlangum o'zimdan,  
Necha buyuk siymolarni mendek ayol yaratgan.

Dunyoning tinchligini saqlay ko'z qarog'imda,  
Kipriklarim kamon bo'lib yov ko'ksiga sanchilsin.  
Tinch yashasin, do'st yashasin hamma inson jahonda,  
Men istayman kurramizni "Do'stlik" deya atashsin.

Tinchlik deya urayapti yurtboshimning yuragi,  
Tinchlik, do'stlik tilamoqda mitti qalbim hamohang.  
Olamning tashvishini ko'taraman kiftimda,  
Meni shunday buyuk qilgan - senga ta'zim, zamonam.

## ***RUHIM***

Tashna ruhim kimnidir izlab,  
Sig'may qolar goho tanimga.  
Topib ber deb dod solgim kelar,  
Ovozim yetgancha hatto olamga.

Usiz uy-ku, uymas, albatta,  
U g'or - tusholmayman bezillab.  
Tushib olsam, tong otguncha to  
Hijron yuki tashlar ezg'ilab.

Har yon chaman, mayin atirlar,  
Men-chi, g'urbat cho'kkan kechaman.  
Muhabbatda qoldirsang yetim,  
Ka'ba nima, o'zdan kechaman.

Intiq demang mehrga tag'in,  
Sarobdirman, yurmang ketimdan.  
O'z-o'zimga izlayman taskin  
Tuproq ingan muhabbatimdan.

Tashna ruhim kimnidir izlab,  
Goh bo'taday qoladi bo'zlab...



## **KIMDIR KELAYAPTI BILDIRMAY**

Sumalaklar tomchilab chak-chak,  
Novdalarga ilk qon yugurdi.  
Qish qahridan sog'-omon qolgan  
Hasharotlar chiqib ulgurdi.

Sabolarga adl teraklar  
Chalib berar nozli sozini.  
Husayni qish bo'yи sog'ingan  
So'ritokka aytib rozini...

Osmon rangin olibdi jilg'a,  
Maysa husnin etadi ko'z-ko'z.  
Novdalarga taqib isirg'a,  
Kelmoqda-ku, Bahor nomli qiz.

Ochiladi dilda chechaklar,  
Allalar boldayin kayfiyat.  
Hech tuyular ne-ne bezaklar,  
Tong bag'rida - pokiza niyat.

Qalbimning torlari, tortil, hey!  
Tinmagin, chertaqoi, sho'x g'azal.  
O, Vatan! Azizsan jon qadar,  
O, Bahor! Yaxshisan naqadar.



## **IFTIXOR**

Qandili, husayni boshida,  
Yoz turar sollanib yarqirab.  
Soylarda u zilol suv emas -  
Bol to'la kuz oqar sharqirab.

Yulduzlar samodan havas-la,  
Sayrga tushganday - chanoqlar.  
Kimo'zar bahsida qizargan  
Shirmonday chiroyli yanoqlar.

O'lkamning husniga mahliyo  
Paxtazor, bog'larni kezarmar,  
Yurakdan quyilib kelar she'r,  
Bir shirin entikish sezarman.

Va qo'shiq boshlarman jarangdor,  
To'rt fasli jannatga andoza,  
O'lkaki, Eramdan ustuvor,  
Shuhrati dunyoga ovoza.

Qo'li gul, eli gul, guliston,  
Gullar diyori - O'zbekiston.

## **BU KUN**

Marhabo, ey do'stlarim, o'lkam gulistondir bu kun  
Guliston bu o'lka ichra Namangan bo'stondir bu kun,

Maysazor taqsa isirg'a tonggi dur-shudringdan,  
Atirgul bargida shabnam zebolanur chandon bu kun.

Gulshanimda turfa gullar bazmi jamshid aylasa,  
Hid sochib o'ynar chunon jambilu rayhondir bu kun.

Gulshan ichra yor chiroyi, vaslidan ilhom olib,  
Subhidamdan shomgacha bulbul g'azalxonadir bu kun.

Bog'lari chorlar chunon, boqqan sari quvnaydi ko'z,  
Qit'a ichra O'zbekiston jannati rizvondir bu kun,

Kuylamasdan hech bo'lurmu, kuylasin zavqli ko'ngil,  
O'zbeginm o'z vataniga o'zibek, tarxondir bu kun.

Qutlug' bo'lsin istiqloling, qutlug' bo'lsin o'zliging,  
Ta'rifinga so'z topolmay Salima she'rxondir bu kun.



## **SADOQAT RAMZI**

*(Cho'qqidagi gul)*

Yer. Ko'k. Havo musaffo,  
Navbahor chog'larida.  
Sayr ayladik ahboblar,  
Bobotog' tog'larida.

Tog'dagi ajoyibot,  
Meni hayron etardi.  
Go'zallik bilan vahshat,  
Yonma-yonda yotardi.

Bir tomon jarlik - dahshat,  
Hayt desa yutaman der.  
Bir tomonda nafosat,  
Ko'ngling chog' etaman der.

Qoyalarning vahshatin,  
Pisand etmay mitti gul,  
Chayqaladi tinimsiz,  
Chaqirib kimnidir ul.

Ahboblar orasida,  
Bir dono chol bor edi.  
Na'matak to'g'risida,  
Qadimiy ertak dedi:

- Na'matak asli gulmas,  
Bir husndor qiz ekan.  
Aqli-zakovatiga,  
Ko'pchilik xushtor ekan.



Go'zal qiz sevar ekan,  
Cho'pon yigit Omonni.  
To'y kun yog'iy bosibdi,  
Pochchaota tomonni.

Omon ketibdi shoshib,  
Dushmanni daf etgani.  
Yorin, ona diyorin,  
G'amdan xalos etgani.

Qirq kuncha qirg'in-barot,  
Jangu-jadal kechibdi.  
Qattol dushman oqibat,  
Yurt ololmay ketibdi.

Lekin olibdi urush,  
Neki olsa shu qizdan.  
Bir umr tul qoldirib,  
To'shakka tushmay iz ham.

Yori ketgan tomonga,  
Umidla tutgancha ko'z..  
Qoyalar cho'qqisida,  
Gulga aylanibdi qiz.

Donishmand chol so'zlaydi,  
Gul haqda balki ertak.  
Baland tog' cho'qqisida,  
Chayqaladi na'matak.

Tavof uchun cho'qqiga,  
Chiqmoq ixtiyor edi  
Lekin cho'qqi-cho'qqi-da,  
Yetmog'im dushvor edi.



O'z kuchimga ishonmay  
Qaradim o'ng, so'limga.  
Do'stlar biri topdi yo'l  
Biri tutdi qo'lidan.

Armonli qiz - na'matak  
Qarshisida egdim bosh.  
Urush! Noming o'chsin deb  
Chayqalib turar Quyosh!

Urushning oti o'chsin,  
Sahifalardan abas.  
Muhabbatning intizor  
Sarg'aygani yetar, bas.

Sariq gu'lni ayblamang,  
Udir sadoqat ramzi.  
Yuraklardan joy olsin,  
Na'matak qizning azmi.



## KUY

Chalar eding muhabbat kuyin,  
Men kuylardim sarxush va sarxush.  
Qadahlarda muhabbat mayi,  
Ko'pirardi, ko'ngil edi xush.  
O'ylardimki, bu - abadiy baxt.  
Hayotimiz to'rt fasli bahor.  
Ishq zavqidan, hayot shavqidan,  
Kuylashamiz, kuyki betakror.  
Kuy uzildi...  
Qadahlar chil-chil...  
Kezib qoldi sovuq shamollar.  
Bahorimga qor yog'di bexos,  
Sochlarimga qo'ndi qirovlar.  
Hijronlarga ko'ksimni tutib,  
Aytilmagan qo'shiqlar haqi,  
Yetilmagan sevinchlar haqi.  
Kuy chalaman.  
Unda sening orzularing - u  
Yoniq-yoniq kulgularing ham,  
Visolingga zor tunlarimu,  
Armonlarim - bari jamul-jam.  
Kuy chalaman sadoqat bilan,  
Sen yashaysan abadiy unda.



\* \* \*

*Kurashadi ikki to'lqin  
Bir-biridan uzoqda*

**A. Oripov**

Kurashadi ikki to'lqin,  
Mitti qalbga bo'lib jo.  
Ikki to'lqin girdobida,  
Qalbim qilar iltijo.

Kurashadi kecha-kunduz,  
Ba'zan g'olib ehtiros.  
Ikki yoqqa tortqilashar,  
Aqlu ishqim basma-bas.

Biri deydi: bora qolgin,  
Sevgum deb ayt, kel deb ayt.  
Biri deydi: yo'q, yo'q, shoshma,  
Sevmoqlik mumkin emas.

- Sensiz menga yorug' jahon,  
Bir qorong'u zimiston.  
O'zing topgin bu dardimga,  
Davo qilib bir imkon.

Aql deydi: Yo'q-yo'q, chida,  
Tushsa neki chekingga,  
Ul birovning baxti axir,  
Baxt berilmas tekinga.

Kurashadi ikki to'lqin,  
Mitti qalbda qizir jang.  
Ikki to'lqin girdobida,  
Behal suzadi bu tan.



...Nega ko'rdim, nega bordim,  
Nega kelding o'shal kun?  
Kunlarimu tunlarimni,  
Bitta qilding o'shaj kun.

O'z-o'zimni ikki qilding,  
Solib qo'yding kurashga.  
Majbur etding bir yurakka,  
Ikki yondan qarashga...

Ikki to'lqin girdobiga  
G'arq bo'lmasam koshkiydi.  
Yonib-yonib bu vujudim  
Kul bo'lmasa koshkiydi...

## KUTISH

Archani bezaydi qo'llarim,  
Ko'zlarim "tiq" etsa eshikda.  
Dasturxon tuzaydi qo'llarim,  
Xayolim kezadi eshikda.  
Kimnidir kutaman intizor,  
U bugun kelishi kerakday.  
O'zimga beraman tasallii:  
Keladi, titrama yurak, hoy!  
Soatga qarayman dam-badam,  
Hovliga chiqaman aylanib.  
Vaqt esa o'tmaydi imillab,  
Ortiga ketadi aylanib.  
Ortiga ketadi bir yurak,  
Kimgadir intizor-intizor,  
Kelmasmi kutganing bo'lsa-gar,  
Seni ko'p etmayin buncha zor,  
To'liqib ketadi bu ko'nglim,  
Kuch bilan tutaman o'zimni.  
O'zanini buzadi daryolar,  
Xira nur to'sadi ko'zimni.  
So'ng... kirib ketaman yotoqqa,  
Artaman suratning gardini,  
Intizor tepadi bu yurak,  
Bag'rimga bosaman rasmini.



## ***SOG'INCH***

Bahorning osmonida,  
Kamalak yongani dam.  
To'rg'ayning chuldurashi,  
Avjiga chiqqanida,  
Bulbulning nag'masida,  
Gul sog'inchi kezgan dam.  
Oyning yuzi to'lishib,  
Tunni yoritganida,  
Siz kelasiz yodimga.  
Kuylarning nozik sasi,  
Yurakni chertganida.  
Kuy yellari erkalab,  
Visolga eltganida,  
Kunduzlarni kechadan,  
Fargini sezaman kam.  
O'g'limning ko'zi menga,  
Jovdirab boqqanida.  
Hammasi-ku bir tomon,  
Sog'inchimning o'zi ham.  
Men Sizni sog'inaman,  
Va Sizga sig'inaman.




## DILIMGA

Endi hech vaqt kuymasman,  
Sening holingga, ey dil.  
Ishqsiz yashay olarman,  
Qaramay senga, ko'ngil.

Vafo so'zin g'ijimlab,  
Qalbning tubiga ko'mdim.  
Holina bo'zlamoqni,  
Qalam bo'yniga qo'ydim.

Kiprigimga yukladim,  
Tananming iztirobin.  
Bo'ldi, og'zimga olmam,  
Sadoqatning sharobin.

O'zimga taskin izlab,  
Men ko'ndim, u ko'nmaydi.  
Muhabbatning qabrida,  
Beva qalb zor bo'zlaydi.





\*\*\*

Ayriliqning bo'g'zida qoldim,  
Hijronlarga bog'landi qo'llim.  
Seni toshga almashtirgandim,  
Nechun yana bo'zlaysan, dilim?

Bir juft yetim qushcha dildirab  
Och, yupun holicha qo'ynimga kirdi.  
Qushchalarni tishimda tishlab,  
Gohida adashdim, yo'l adashtirdi.

Alvastining ko'zin chiroq deb  
To'qaylarga tutashdi yo'llim.  
Jodugarlar oynasin tashlab  
Yaratishdi bir tubsiz ko'lni.

Bu yo'lidan chiqmoqlik ko'p qiyin bo'ldi,  
Tikonlar egnimni oldilar yulib.  
Jinlar quyuniga atrofim to'ldi,  
Masxara etdilar holimni ko'rib.

Kurashdim! Kurashdim! Kurashdim!  
Ka'zimni cho'qidi necha zog'.  
Ming bor o'ldim, ming bor tirildim  
Niroyat yaratdim so'ngsiz bog'.

Bu bog'da yuz ochar g'unchalar,  
Qushchalar shodligin ko'r endi.  
Ne uchun bo'zlaysan bo'z dilim  
Ne sabab yig'laysan sen endi?..



\*\*\*

Xush atrini sepib bog'larga,  
Yana bahor keldi olamga.  
Turnalarga intiq ko'z tutgan,  
Ishq sig'may qoldi tor bu xonamga.

Adirlarga yetaklab borib,  
Yellar navosidan soz tutdi.  
Na'matakda mittigina gul,  
Bulbul imosidan noz tutdi.

Shabnamlarda yuzini yuvib,  
Quloq tutdi irmoq kuyiga.  
Vafo sheväsini o'lltirib,  
Bastaladi bulbul kuyiga.

Barchasini aylab jamul-jam,  
Bilmam kimga tutmoq istadi.  
Qaytmas bo'lib ketgan bahorin,  
Navbahordan kutmoq istadi.

Va sig'madi bog'larga ortiq,  
Yotog'imga kirdi yetaklab.  
Hijron dog'i kuydirgan dilni,  
Erkalar shivirlab ertaklar.

Mana, shunday o'tmoqda bahor,  
Sog'inch so'roqlaydi tegramda.  
Yulduz-yonog'imda qotgan yosh,  
Bo'zlab turar oy derazamda.



## ***JONIMNI TIKIB...***

Sen osmon bo'lsayding, osmon bo'lsayding,  
Ustimga yog'ilgan nayson bo'lsayding.  
Bir yer bo'lardim-a, sening yo'lingda,  
Jonimni tikardim, jonni tikardim.

Sening armonlaring jonioqga ekib,  
Chamanlar etardim, g'amming yitardim.  
Umidsiz o'tganim sahrolaringdan  
Chechaklar undirib, senga tutardim.

Yolg'on andishamas, bir ahd bo'lsaydi,  
Hasrat chekmas edim, g'am chekmas edim.  
Ko'nglimni sen uchun poyandoz etib,  
Ko'zim gavhariga chodir tikardim.

Ko'nglim gilamining chodirlarida  
Sen mehmon bo'lsayding, mehmon bo'lsayding.  
Boshim oyog'ingda, xizmating qilib,  
Bir mezbon o'tardim, mezbon o'tardim...



\*\*\*

Endi bu ostonada bir xona qulfdir,  
Uni ocha olmay bo'zlaydi bardosh.  
Bu uy bevasining dilida ohdir,  
Har kech yuvar endi kiprigini yosh.

Bu to'shakning endi yostig'i toqdir  
O'rnida xotirlar so'zlab chiqadi.  
Orzulab ekilgan ishq daraxtining,  
Shoxida armonlar g'uncha ochadi.

Ming marta eshikka haydalgan kecha,  
Saxarda bari-bir kirib keladi.  
Chetiga dog' tekkan oq ro'moliga  
Umidni yo'rgaklab olib keladi.

Lekin bu ostonada bir xona qulfdir...



## XAYOL

Tulpor deb umidni sayladim,  
Quyoshning nuriga bog'ladim.  
Va ketdim shitob-la samoga,  
Sen qolding gungu lol ma'voda.

Ko'zlarining qarolmay qamashdi,  
O'tganlar hayronda qarashdi.  
Yulduzlar aylandi qoshimda  
Men parvo etmadim loshimga.

Jimgina o'zingni kuzatdim,  
Samodan bir mehr uzatdim,  
Tushunding yolg'izlik neligin,  
Hayotning nelarga tengligin.

Izlading izimni topmayin,  
Bo'zlading, ne uchun qaytmayin!  
To'kildim nur bo'lib poyingga,  
Sen esa lol eding joyingda.

To'l'magan sabrim ey, to'la qol.  
Yo'qotgan iqbolim, kelaqol...



## **AGAR KELSANG...**

Men osmon ko'ksidaydim,  
Edim oy ardog'ida.  
Quyosh taftini tuydim,  
Yulduzlar qarog'ida.  
Meniki edi olam,  
Bor go'zalligi bilan.  
Aytishuv boshlagandim,  
Samoning qizi bilan'.  
Chorlaganim yo'q edi,  
Nega kelding bildirmay.  
Bor butun hayotimni,  
Sehrlabsan sezdirmay.  
Sevgi, g'anim ekansan,  
Umrimga g'am ekibsan.  
Sochlarimga sezdirmay,  
Qirov sepib ketibsan.  
Ertak aytdim baxtiyor,  
Tugadi alam bilan.  
Vafodan to'qiymen she'r,  
Ko'zlarimda nam bilan.  
Toshiarga urdi boshin,  
Sevgim - o'rtadi xayol.  
Qalbda ardoqlaganim,  
Bag'rida o'zga ayol.  
Nima qilay, chorasiz,  
Har kun ming bor kechurman.  
Agar kelsang, dunyoda  
Yo'qotganim topurman.

---

\* Zuhro yulduzi.



\*\*\*

*Oolloh, olloh, ishq aro  
Mundoq balolar bor emish.*

**A. Navoiy.**

Men seni qizg'andim hatto o'zimdan,  
O'zimdan yashirdim xayollariningni.  
Har dam tilga kelsa, ichimga yutdim,  
Seni so'roqlagan savollarimni.

O'zimni kuzatdim xushlamaygina,  
Sotib qo'ymasin deb ko'zimdan qo'rqedim.  
Sen tomon intilgan indamaygina,  
Butun vujudimdan, o'zimdan qo'rqedim.

Shundan keyin yellar shivirlayverdi,  
Qulog'imga faqat sening ismingni.  
Xayol - mohir rassom, har taraf  
Chizaverdi faqat sening rasmingni.

Ko'chalarda, bog'larda, hatto  
Piyolamning chetlarida sen.  
O'g'lim yanog'idan tortib to -  
Yurtim olis kentlarida sen.

Qanchalik o'zimni tortganim sayin,  
Ko'nglim chopaverdi, talpinaverdi.  
Ka'ba tayin asli, bu yurak esa,  
Seni ka'bam, dedi, sig'inaverdi.



## ***ILTIVO***

Mayliga toabad hajringda yonsam,  
O'zga yor vaslini qilmasman havas.  
Bitta iltimosim, o'tinchim faqat,  
Ba'zan tushlarimga kirib tursang bas.

Tushlarimda kelgin avvalgiday-da,  
Ko'ksingga bosh qo'ysam, chekinsin hijron.  
Sening keng bag'ringga singib ketay-da,  
Shodon yillarimga qaytayin bir on.

Osuda yillarim masrur damlari,  
Meni o'z komiga tortib ketsinlar.  
Hijron chekinsinu, shirin damlarim,  
Abadiy men bilan qolib ketsinlar.

Mayliga toabad hajringda yonsam,  
Ba'zan tushlarimga kirib tursang bas.



## MUHABBAT

Muhabbatning yolqinlari lojuvardli,  
Yog'dusidan ko'zim yashnab kulganim bor.  
Muhabbatning so'qmoqlari tikanakli,  
Kaftlarimda tikan zahrin sezganim bor.

Tikansiz bo'lmas gul, bulbulsiz chaman,  
Muhabbat siz yashagaymi hech bir inson.  
Mayli, yo'ling tikan bo'lsin yoki ravon,  
Muhabbatim, ahdim degan qarorim bor.

Muhabbatning yo'llarida kim devona,  
Toshni kesib, kanal qazdi kim mardona.  
Qoni bilan yozib ketdi kim baytnoma,  
Oxir menga nasib etmish bu baxtnoma  
Ming shukurkim, baxt porlagan zamonam bor.





## ***QO'MSASH***

Handalakning hidi tutgan qir,  
Bilqillagan sertuproq ko'cha.  
Rayhon isi ufurgan hovli,  
Hamma, hamma, hammasi o'sha...

Unda faqat siz yo'qsiz ota,  
Unda faqat bolaligim yo'q...





## **VASLINGGA ZOR EDIM**

Yaproqlar shivirlar poyingda,  
Hislarim bo'zлади beimkon.  
Bulbulning nolasi jonimda,  
So'zingga zor edim, yor, ishon!

Ko'zimdan to'xtamas jalalar,  
Dilimni o'rtagay nolalar.  
Shundanmi bag'ri qon lolalar,  
Izingga zor edim, yor, ishon!

Yoningdan beparvo o'tarman,  
Boqmasang boqmayin ketarman.  
Uvolim tutmasin, netay man,  
Ko'zingga zor edim, yor, ishon!

Besh kunlik bu dunyo ketimli,  
Kimgadir yoqimli, o'timli.  
Qaytimli bu dunyo, qaytimli,  
O'zingga zor edim, yor, ishon!





## ZAYNABGA

(“O’tkan kunlar” romanini o’qib)

Toshkentning eng suluv qizi, suluv qizi,  
Ko’p dillarga solgan totli g’uluv qizi,  
“Yor-yor” bilan peshonangga bulut qo’ndi,  
Suzilmagin, o’ylaganing sarob o’zi.

Beging seni dildan suyib erkalamas,  
Bir yurakka ikki ishqni qo’yib bo’lmas.  
Javobi yo’q muhabbatga chidab bo’lmas,  
Beging seni dildan suyib erkalamas.

Taqdirmi bu muncha so’qir - ko’r bo’lmasa  
Qiz degani buncha haqir, xor bo’lmasa.  
Bir yigitni bag’rin obod etarim ey,  
Bu iqboling munchalar ham sho’r bo’lmasa.

Beging seni dildan suyib erkalamas,  
Bir yurakka ikki ishqni qo’yib bo’lmas.  
Javobi yo’q muhabbatga chidab bo’lmas,  
Beging seni dildan suyib erkalamas.

Oy desa oy, kun desa kun, to’lin yuzim,  
Asaldan ham totliroq gar aystsam so’zim.  
Oh netayin, Qodiriysiz zamonanining  
Kumushi ham, Zaynabi ham tanho o’zim.  
Begin meni...



## **ZAYNABNING SHE'RI**

(Men - Kumush...)

Orzularim bisyor edi, yor edi,  
Ko'zlarimda mastona baxt bor edi.  
Muhabbatim ishqingizga zor edi,  
Bilsam, baringizga qo'lim yetmaydi.

Ko'zimga cho'p bo'lib suqildi Kumush,  
Mening zor baxtimga cho'mildi Kumush.  
Men ham bir Kumushman, Zaynabmas,  
Kumush.  
Lekin baringizga qo'lim yetmaydi.

Armonli og'riqdan azobda jonim,  
Rashkning olovida bearmon kuydim.  
Bearmon kuydim-a, jonimdan to'ydim,  
Lekin baringizga qo'lim yetmaydi.

Ming yilki telbavor kezaveraman,  
Hijron azobidan bezaveraman.  
Har qadam, har damda sezaveraman,  
Begin, baringizga qo'lim yetmaydi.



## YO'QLOV

Qaldirg'ochlar oltmis bor qaytdi,  
Oltmis bor turnalar roz aytdi.  
Oltmis yilki tugalmas aytim,  
Faqat sen qaytmading, qaytmading.

Oltmis yilki bir kampir kutar.  
Boshida oq ro'mol sharqona.  
Neki o'tsa ichidan o'tar,  
Unga guvoh yolg'iz ostona.

Ushoq tushsa burda nonidan,  
Umid bilan senga yo'yadi.  
Har kech pishirgan taomidan,  
Senga atab olib qo'yadi.

Qaldirg'ochni kutar so'roqlab,  
Keltirdingmi biror xushxabar.  
O'n to'qqizga to'lmasdan ketgan  
Yetmish yoshli bolamdan xabar?

Turnalarni qolar kuzatib,  
Qayta-qayta kutib oladi.  
Faqat ona kutishdan tolmas,  
Rahmi kelib, yo'llar toladi.

Oltmis yilki bir ayol kutar,  
Boshida oq ro'mol sharqona.  
Umid bilan oy, yillar o'tib  
Unga sherik Vatan - ostona.

Lekin sen qaytmading, qaytmading,  
Vatanga jon fido etganim.  
"Ona yerga bosh qo'ygan joydan  
Turna bo'lib uchib ketganim".

\*R. Hamzatovdan.



## O'ZBEK AYOLI ILTIJOSI

(Toshkent, Buxoro va Andijon voqealari)

Tarixing o'ylasam, qaqshaydi jonioim,  
Qilmishingni ko'rsam, sachrar iymonim,  
O'z ichimdan chiqqan yomonim, yovim,  
Seni duoibad qilmasam bo'lmas.

Sen tufayli ketdi Bobur qon yig'lab,  
Elim deb o'rangan bag'rini tig'lab,  
O'zbekiston qoldi bolam deb bo'zlab,  
Endi andishani yig'masam bo'lmas.

O'z yurtini sotgan yomon padarkush,  
Ulug'bekni chopgan zamon padarkush,  
Otasini otgan bezot padarkush,  
Taningni bekafan etmasam bo'lmas.

O'n to'rt yil xalqim ozod, hur bo'ldi,  
Oftobning tekkan nuri mo'l bo'ldi,  
Baxtimni kuylashga bulbul jo'r bo'ldi,  
Ko'rolmagan ko'zing o'ymasam bo'lmas.

Yurtboshim ollohim qo'llagan otang,  
Farzanding baxtini o'ylagan otang,  
Elim deb, yurtim deb yonganing otang,  
Unga cho'zgan qo'ling chopmasam bo'lmas.

Sen qandoq nomardsan, sen qandoq olchoq,  
Dushmanning qo'llida bo'lib qo'g'irchoq.  
Eling taqdirini bilib o'yinchoq,  
Bosgan izlaringni qirmasam bo'lmas.



Qo'limda "Qur'on"im bilan qarg'ayman,  
Pokiza iymonim bilan qarg'ayman.  
Onalik nomim bilan qarg'ayman,  
Sendek padarkushdan kechmasam bo'lmas.

Lek seni qarg'olmam, adashgan bolam,  
Yolg'on so'zdan ko'zi qamashgan bolam.  
Adashgan bolam-a - ko'ksimda nolam,  
Senga insof tilab turmasam bo'lmas.

Otang gunohingdan kechdi qo'zim deb,  
Yaxshini, yomonni ko'rар ko'zim deb.  
Va'da ber, chin yigit aytar so'zim deb,  
Aybing mehnat bilan yuvmasang bo'lmas.





\*\*\*

*Muhammad Yusufga*

Yulduz uchdi dunyodan,  
Kunduz ko'chdi dunyodan.  
Sen ketgan kun keng olam,  
Dorni quchdi dunyoda.

Ustimga bir tog' tushdi,  
Bulut sochini siqdi.  
Izlab izing topolmay,  
Shamol sahroga chiqdi.

Qirg'oqda yig'lar yalpiz,  
G'amdan qaddi dol nargis.  
Suv ostida nilufar,  
O'ziga kelmas hanuz.

Muhammadjon, Muhammad  
Yetim qoldi muhabbat.  
Seni eling, eldoshing  
Unutmaydi to abad.

## **HAR BIR QALBDA YASHAR SHOIR**

*(Muhammad Yusufga)*

G'aming aytib rangu ro'yi somon bo'ldi,  
Armonlaring yozib o'zi armon bo'ldi,  
Yozganlari dardkashingga darmon bo'ldi,  
O'zbekiston, dovrug'ingda yashar shoir.

Marhamat izlaringga zor yig'laydi,  
Bog'ishamol so'zlariga zor bo'zlaydi.  
Rayhon isi dimog'imni qitiqlaydi  
Yalpizlarning qatlarida yashar shoir.

Uning sozi navolarga ko'chmadimu,  
Sevaraning sozlariga ko'chmadimu,  
G'unchalarning nozlariga ko'chmadimu,  
Bulbulga bir gaplarida yashar shoir.

Aro yo'lida qoldi demang Muhammadni,  
So'zlay-so'zlay toldi demang Muhammadni,  
Osmonga yo'l oldi demang Muhammadni,  
Ash'orlari baytlarida yashar shoir.

Men so'zlasam, yurt nomidan so'zlaydurman,  
Gar bo'zlasam, yurt nomidan bo'zlaydurman,  
Endi seni o'z-o'zimdan izlaydurman,  
O'zbegimning qalblarida yashar shoir.



## SHE'RIYATGA SIG'INDI

Sen ul tomon yo'lga tushding, o'zim ham,  
Arosatda ko'zlarimga ýo'sh indi.  
Bo'g'zimdan o't chaqnayapti, so'zim ham  
Ming ohangda, ming bo'lakka bo'lindi.

Yo'ltikonlar o'sdi yo'lq'iz so'qmoqda,  
Tovonimni tildi bir pichoq bo'lib.  
Na-da tovon, yuragimda oqmoqda,  
Dardu firoq qoni bir anhor bo'lib...

Chopaverdim, parvo etmay yo'llimda,  
Va nihoyat, kichik so'qmoq ko'rindi.  
Seni izlab yo'lga chiqqan zor qalbim,  
She'rnı topdi, She'riyatga sig'indi.



## **YETKAZ**

Sabo, sog'inganimni ul bevafoga yetkaz,  
Hajrida yonganimni jonim fidoga yetkaz.  
Men zor bo'lib subhi-shom ko'zim yo'lda nigoron,  
Yor yurarmish oh urib, mehri davoga yetkaz!

Sevgisi yolg'on ekan, nechun ortimdan yurdi,  
Har ko'rganda jilmayib ko'ngilni yo'ldan urdi.  
Chizib yurakka rasmin o'zi nishonga urdi,  
Bag'rida qonligimni sayyodnamoga yetkaz.

Men ishqida devona, bir qayrilib qo'ymaydi,  
Yordan ko'ngil uzishga bu yurak yo'l qo'ymaydi.  
Uning ishqida hech kim, oh, menchalik kuymaydi,  
Kuyib adoligimni sohib safoga yetkaz.

Mayli, uning iziga men zarracha xok bo'lsm,  
Yo'llarida sarg'aygan qovjiroq yaproq bo'lsm.  
Uning xayoli menga bir olam o'zi bilsang,  
Ahdimda borligimni kuyu navoda yetkaz.





## **BAHOR NAFASI**

Niliy popuk taqdi soyda majnuntoi,  
Bodom qulog'ida yoqut isirg'a.  
Boychechak qiqirlar, yelkasida qor,  
Yellar shiviri ham vobasta sirga...

Tabiat erkalar bolaginam deb,  
Novdalar ilkini silar mehribon.  
Ona yer atalmish ulkan qasrda  
G'irmirlashib qoldi borki tirik jori.

Maysazor sozladi zangori yo'llar,  
Anhorlar chopadi olg'a tolmayin.  
Sutga chayib oldi yuzin oymomo,  
Yulduz hadiksirar: ko'rmay qolmayin!

Ajab, tabiatda buncha jonlanish,  
Chechaklar atriga cho'milmish nahor.  
Bugun oppoq tongda ufq toqida  
Jilmayib turardi ayol va bahor...





## *Jaloliddin Rumiyning aytganlari*

*Shamsiddin Tabriziy firoqida Jaloliddin Rumiy ko'p kuydi. Minglab g'azallar to'qildi bu ayriliqdan. Uning aytgan-aytmagan g'azallari orasida bu so'zlar ham bor edi.*

O'zing eding-ku ruhi ravorim,  
Sensiz yo'qoldi she'rim-zabonim.  
Kel endi bo'lgin dardga darmonim,  
Sog'indim, qaydan Shamsimni izlay.

Shamssiz shams ham berkindi ko'kka,  
Qamarning rangi aylandi ko'kka.  
Ohim to'lqini urar qirg'oqqa,  
Sendayin tiyrak ko'zimni izlay.

Ash'or to'qirman sening tilingda,  
G'azal o'qirman sening tilingda.  
Elga yoqurman sening tilingda,  
Qaylardan shirinso'zimni izlay.

Bir torning ikki sadosi sen-men,  
Azaldan yaxshilik gadosi sen-men.  
Shikasta ko'ngillar davosi sen-men,  
Sen menda bo'lsang, men kimni izlay.



## "Jaloliddin Rumiy" romanini o'qib

*Jaloliddin Rumiy Shamsiddin Tabriziy firoqida yonib, har yonga chopar jo'natdi. Daragini topmadni. O'zi izlamoqni ixtiyor etib, bir guruh darveshlar qurshovida yana Damashq sari yo'l oldi. Shamsiddin fojasining tagiga yetgan Rumiyning katta o'g'li Valad sirni ochmoqchi, otasini bu yo'ldan qaytarmoqchi bo'ldi, lekin qaytara olmadi. Mana uning labida qotgan so'zлari:*

Bahor ketdi, lola ko'ngla dog' o'ldi,  
Bulbul ketdi, sayramoqqa zor o'ldi.  
Do'st yig'ladi, dushman ko'ngli chog' o'ldi,  
Gul, bulbulni izlab qayon borursan?

Olam toji edi Insoni Komil,  
Yuz yilda yaralgay Insoni Komil.  
Insoni Komilga o'g'ling-ku qotil,  
Yo'q Komilni izlab qayon borursan?

Bu olam ishiga tushunmoq dushvor,  
Insoni Komil kim anga dunyo tor.  
Shamsiddinga asli dunyo o'zi zor,  
Zor dunyoni izlab qayon borursan?

Ko'kni bulut bosdi, berkindi shams,  
Bulut vaqtinchadir, boqiyidir shams.  
Oh, quduq tubidan topildi Shams.  
Shamsiddin dahmada, qayon borursan?  
Ota, qayt yo'lingdan, qayon borursan?



\* \* \*

Oymomoga soldim arg'imchoq,  
Bugun dunyo go'zal naqadar.  
Yulduzlardan taqdim ko'zmunchoq,  
Nurdan boshimdagi gulchambar.

Yonboshladim parqu bulutga.  
Qushlar qo'shiq aytib o'tdilar.  
O'pib yellar yonoqlarimdan,  
Sochlariimni silab ketdilar.

Yuragimda shirin talpinish,  
Nedir kuylamasga qo'ymaydi.  
Atrofimda uvillaydi qish,  
She'rim bahor sepini yoydi.

Endi bilsam osmon muhabbat,  
Har dilda bir doston muhabbat.  
O'zimga ham sezdirmay yurib,  
Bitkazibsan oshyon muhabbat.



## **BEVA AYOLNING BO'ZLOVLARI**

Hayot yo'llarida toyib ketdim-yey,  
Nohaq sitamlardan to'yib ketdim-yey.  
Faqat unga kuyib, suyib o'tgum-yey,  
Ona yer, bag'ringga yashirgin meni.

Daryoman qirg'og'in buza olmagan,  
Bir cho'lman chanqog'in bosa olmagan.  
Baliqman yo erkin suza olmagan,  
Ona yer, bag'ringga yashirgin meni.

Bevami, insonmas, bir xas dedilar,  
Sho'rpeshon'a, faqir bir kas dedilar,  
Qo'ynimda qalqi bir nafas dedilar,  
Ona yer, bag'ringga yashirgin meni.

To unga avvalday yoqib borayin,  
Bir olam misoli oqib borayin.  
Pokiza yuz bilan boqib borayin,  
Zamini panohim, yashirgin meni.  
Ona yer, bag'ringga chaqirgin meni.

## MARHUMGA

H. Xudoyberdiyevanining "40 yildan  
so'nggi nido" turkum she'riga

Kutganim yo'q erdi bu kunni mutloq,  
Bag'ringizni nurday to'lardsam devdim.  
Sizga munosib yor, mehribon ona,  
Umrangiz bezagi, gul bo'lsam devdim.  
Bo'lmasdi, ayriliq tushdi o'rtaga,  
Sizni uzatdilar qabr to'riga.  
Men-chi, ortingizdan sochimni yoyib,  
Cho'lg'anib yiqildim hajr to'riga.  
G'anim shod bo'lmasin deb, do'stlarim xafa, -  
Ichlarimga yutdim ko'zim yoshini.  
Sizga erkalangan qo'llarim bilan,  
Ko'ksimga bosgancha hajr toshini.  
Endi tushlarimdan izlayman najot,  
Barcha kunni kutsa, oshiqman tunga.  
Tushlarimda keling, keling yaqinroq,  
Bag'ringizda yonay, tashnaman shunga.  
Ketmang... ketmang jonim,  
Tong otma birpas.  
Men diydoringizga to'yib olayin,  
Yildan uzun kun bor, o'tishi osonmas.  
Tungacha yiqilmay yetib olayin.  
Birovlarga yoqqan atlas ko'ylakdan,  
Mehrim oshiftaroq qora ko'ylakka.  
Nechun bu tullikdan kechib ketayin  
Seni deganmidim men uch yillikka.  
Yo'q, yo'q, jonim, o'lim bizga bo'lmas g'ov.  
O'g'limda ko'raman yoniq ko'zingiz,  
Yodgorim, shirinim, jajjiginam deb,  
Bag'rimga bosganim sizning o'zingiz,  
Kutganim yo'q erdi bu kunni mutloq.



## QATRA

Menga xabar qilishdiki, kelar emishsan,  
Bu xushxabardan shunday quvondimki,  
Olamga hayqirgim keldi, ovozim boricha...  
Sevinchimni yellarga suyunchiladim,  
Yellar Bahorga yugurdilar, suyunchi  
olmakka.

Shodligimning sherigi - shoshqaloq Bahor  
yetib keldi

Maysalar qulog'idan tortqilab,  
novdalarga kurtaklardan isirg'a  
taqqancha...

Menga yordamlashmoqchi bo'lib olamga  
yashil gilamini yozdi poyandoz qilib,  
anvoyi chechaklar ekdi yo'l chetlariga...  
Men esa seni kutyapman.

Erta sevinchlab qo'yganim uchun bahor  
oldida mustar bo'lgancha.

Sendan esa... darak yo'q.

Aldanganidan xafa bo'lgan Bahor senga  
atagan chechaklarini qirlarga sochdi.

Adirlar yondi lovillab...

Gulxanlarga bir qaradi-yu, ketib  
yubordi arazlagancha.

Kechagi yoqut marjonlar o'nida barglar  
orasidan mo'ralayotgan dovuchchalarni  
ko'rdim.

Bahorimdan tamom ayrildim bugun...

Arazlab ketgan singlisining o'chin  
olgani Saraton yetib keldi olovini  
purkab.

Kechagi barglar orasidan xo'mrayib



mo'ralayotgan dovuchchalar bugun sap-sariq bo'llib, yerga talpinib tushyapti.

Seskanib ketdim...

Sendan esa hanuzgacha darak yo'q.

Kel, kela qolsang-chi, axir.

Men seni shunday...

Yo'q, aslida, kelishingning hojati ham yo'q

Lekin...

Lekin... yozimdan ham ayrilib  
qolishdan shunday qo'rqtyapmanki...



## ***INTIZORLIK***

Muhabbatning yo'ilari  
Cho'l ekan, taqir ekan.  
Yo'lning iztiroblari  
Umrimga tatirmikan.

Qachon tushdim bu yo'lga,  
O'zim ham qoldim bilmay.  
Bilsam qaytib ketardim,  
Koshonasiga kirmay.

Endi ortga qaytmoq yo'q,  
Qaytishga ham qo'ymaydi.  
Yurak qurg'ur har zamon,  
Uni izlab yig'laydi.

Umid bilan kirgandim,  
Muhabbat chamaniga.  
Hayot otib yubordi,  
Qaysning sahrolariga,

Qaysning sahrolaridan,  
Umidim bor, ketarman,  
Qon yig'latgan muhabbat,  
Bir kun senga yetarman.

Ungacha mayli, meni,  
Qiynarversin iztirob.  
Vaslingga yetkazmasdan,  
Etsa hamki umrim sob.

Oradan ming yil o'tgach,  
Rost bo'lsa u rivoyat,  
Yana sening qarshingda,  
Qayta yaralsam shoyad.

Ungacha mayli, ko'nglim,  
O'rtayversin iztirob.  
Qayta yaralsam agar,  
Unda zor etma biroq.





## ***QUTLOV***

Siz bilan elimiz piru badavlat,  
Siz o'ltingan o'rın to'kadi savlat.  
Har bitta kalomi dono-purhikmat  
Bobo, bahoringiz muborak bo'lisin!

Uyimiz chiroyi, to'rimiz ko'rki,  
Siz bor oilamiz fayzli ham ko'rqli.  
Har bir duoyingiz baraka, qutli,  
Momo, bahoringiz muborak bo'lisin!

Sizdan boshlanar hayotning neki bori,  
Siz dunyo yaratuvchi olamning ijodkori.  
Bahor o'xshaydi sizga, siz ko'ngillar bahori,  
Ona, bayramingiz muborak bo'lisin!

Yurtimning tinchligin tutgan posbonim,  
Siz borsiz - musaffo erur osmonim.  
Ishonchim, quvonchim, suyangan tog'im,  
Begin, Navro'zingiz muborak bo'lisin!

Og'am, singillarim, undan narisi,  
Shu aziz yurtimning yoshu-qarisi,  
Tantisi, egrisi, bari-barisi,  
Elim, navro'zingiz muborak bo'lisin!

## **TO'RTLIKLAR**

Onaning allasi, go'dak kulgusi,  
Havoning sofligi, oyning yog'dusi,  
Ikki dil juftligi, visol og'ushi, -  
Tinchlik - bu tinchlik.


\*\*\*

Uning bilan go'zaldir olam,  
Uning bilan sehrga to'liq.  
U oshyon etsa gar dilni,  
Dosh berolmas har qanday to'siq.

\*\*\*

Ikki torning jo'shqin sadosi,  
O, u kuylar chalinmas takror.  
Ikki qalbning yuksak ma'vosi,  
Bir-biriga o'xshamas bahor.





## ***OROL KETIB BORADI***

Vujud qolar yotoqda,  
Har kecha hayrona, lol.  
Ruhim kezar sarsari,  
Bo'yida azim Orol.  
Tentiraydi tonggacha,  
Xazon bo'lgan bog'larda,  
Tuz to'zoni yugurgan,  
O'lik bandargohlarda.  
Kirib keliboq behol,  
Ayni sahar chog'larda,  
Ruhim vujudga dodlar:  
Orol ketib boradi,  
Orol ketib boradi,  
Ketib borar go'daklar.  
Ikki qo'li bir tepa.  
Faryodu zor bekachlar.  
Huvillashib qoldilar,  
Talo-to'pli bekatlar.  
Ruhim betoqat dodlar:  
Orol ketib boradi.  
Orol ketib boradi,  
Ketib borar tillolar  
Ko'kdan boqib ilojsiz,  
Mo'ltiraydi hilollar:  
Bag'ringiz shuncha toshmi,  
Imoni yo'q odamlar,  
Shoshilsangizchi, tezroq,  
Orol ketib boradi.  
Daryosi tongan elim,  
Sho'ring bormi?



Tarix oldida oqlar  
So'zing bormi?  
Tuzga ko'mib Samarqandu Buxoroni.  
Seni qarg'ab, ko'kka o'rlab oh-fig'oni  
Orol ketib boradi.  
Orol ketib boradi!



Bolalarqa

## **VATANIM BAYROG'I**

Vatanim bayrog'ida,  
Uch xil rangning aksi bor.  
Bu uch rangda ona xalqim,  
Pok niyati ramzi bor.

Yashil yo'li yerimizning  
Boyligini ko'rsatar.  
Oq yo'lida ona xalqim  
Pok niyati aks etar.

Moviy yo'li bildiradi,  
Osmonimiz sofligin.  
Qizil chiziq ota-bobom,  
Ko'rsatar shonli yo'lin.



## ***BOG'CHAMIZDA***

Bog'chamiz quchog'ida,  
Yuramiz ahil-inoq.  
Sanoqni o'rganamiz,  
Qo'shiq aytamiz quvnoq.

Qurish-yasash o'yini,  
O'rgatadi mehnatga.  
Kuzatarniz atrofnii,  
"Tabiat"ni o'tganda.

Nutq o'stirish mashqida,  
Quvnoq film yaratdik.  
Onam rahbarligida,  
Rollarni ijro etdik.

Didaktik filmimizning,  
Nomi "Ahil oila",  
Kelib ko'ring sizlar ham,  
Deysiz albat: qoyil-a.



## ***ORZU***

"Ertalabki soat" bugun,  
Bo'ldi rasm ustida.  
Lola, gullar to'g'risida,  
So'zlab berdi Husnida.

- Men uchuvchi bo'laman,  
- Men esa arxitektor.  
- Men-chi - deydi Abdujabbor, -  
Boshqaraman traktor.

Tayyorlov guruhida,  
Kasb bahsi qizib ketdi.  
Oxiri Rasuljonga,  
So'zning navbati yetdi.

- Bo'laman chegarachi,  
Qo'riqlayman Vatanim.  
Pokiza yerimizga.  
Oyoq qo'ymasin g'anim.

## **JAJJI GO'ZAL**

Men ham jajji go'zalman,  
Qandu novvot, asalman.  
Yuzim misli oykulcha,  
Deysiz: shirin qiz buncha!  
Ota-onam dilbandi,  
Buvimning o'git, pandi  
O'zbegimning qiziman,  
Osmonda yulduziman.  
Bo'lgu'si Mohlaroyim,  
Deb quvonadi buvim.  
Oilada bosh qizman,  
Qaynab turgan osh qizman,  
Komronbekni yetaklab,  
Muhammadyorga qarayman.  
Rediskani etaklab,  
Yulishga ham yarayman.  
Katta bo'lsam, albatta,  
Zo'r shoira bo'laman.  
Yurtimning dovrug'ini,  
Keng olamga yoyaman.  
Ham oqila, pazanda,  
Bo'laman uy bekasi.  
Qutlug' bir xonadonning,  
Bo'laman malikasi.  
Orzularim juda ko'p,  
Keyin yozaman to'p-to'p.  
Hozircha jajji go'zal,  
Ismim Nodira asal.



## **CHEVAR QIZ**

Ozodani mактабда,  
Deyishadi: chevar qiz.  
O'тoqlari ichida,  
Juda mehnatsevar qiz.

Ozoda tikkan ko'yлak,  
Do'ppi, kashta, gulbezak.  
Joy oldi ko'rgazmadan,  
Hatto belbog', so'zana.

Vaqt topsangiz, albatta,  
Ko'rgazmaga kelarsiz.  
Qizchamiz ishin ko'rib,  
Siz ham qoyil qolarsiz.



## **KAPTARIM**

Vatanim osmonida,  
Kezib yurar oq kaptar.  
Dunyodagi do'stlarga,  
Eltadi mendan xabar.

Elchi qushim parvozda,  
O'qqa nishon bo'lmasin.  
Do'stlarga yozgan xatim,  
Yetmay yo'lda qolmasin.



## ***BOG'***

Dilshod, Sanam, Nargiza,  
Ko'chat ekdik ko'p.  
Taglarini yumshatib,  
Suv taradik xo'p.

Mehr bilan parvarish  
Etdik ularni.  
Oy ketidan yil quvib,  
O'tdi yillarni.

Ekkan ko'chatlarimiz,  
Bu kun katta bog'.  
Mevasini terib hech  
Etmaymiz adog'.

Endi sizga aytsam-chi,  
Bog'ning rostini.  
Rangli qalamda chizdik,  
Ular rasmini.



## KATTA BOLA

Endi katta bolaman,  
Boqaman qo'y, quyonim.  
Suv berib, o't solaman,  
Tozalab tagi, yonin.

Shalpangquloq quyonim.  
Beda bersam yemaydi.  
Xafamikan qo'chqorim,  
Hattoki "baa" demaydi.

Hayvonlarim yo'q joni,  
Chunki plastilindan.  
Tunov kuni biz uni,  
Olgandik magazindan.



## **MINNATDORLIK**

Daraxtlarga ilgandik,  
Ertabahor inchalar.  
Uchib kelib qo'nishdi,  
Sa'va, mayna, zog'chalar.

Bugun yozning chillasi,  
Mehnat qilar mardona.  
Ochib tuxum - bolasin,  
Atrofida parvona.

Hasharotlarni terib,  
Ekinlarni saqlaydi.  
Bizdan minnatdor bo'llib,  
Sayrab-sayrab alqaydi.

Onasiga qo'shib,  
Chug'ur laydi polopon:  
- Rahmat, doim bo'l omon,  
Usta do'stim - bolajon.

## **VARRAGIM**

Baland parvoz varragim,  
Senga mehr ichirdim.  
Istak-orzularimni,  
Senga qo'shib uchirdim.

Osmon bo'lib musaffo,  
Tinchlik bo'lsin jahonda.  
Varragimiz doimo,  
Uchaversin osmonda.



## MUNDARIJA

O'zbekistonim	3
Ayol g'ururi	4
Ruhim	5
Kimdir kelayapti bildirmay	6
Iftixor	7
Bu kun	8
Sadoqat ramzi	9
Kuy	12
Kurashadi ikki to'lqin	13
Kutish	15
Sog'inch	16
Dilimga	17
Ayriliqning...	18
Xush atrini...	19
Jonimni tikib...	20
Endi bu ostonada...	21
Xayol	22
Agar kelsang...	23
Men seni qizg'ondim	24
Il'tijo	25
Muhabbat	26
Qo'msash	27
Vaslingga zor edim	28
Zaynabga	29
Zaynabning she'ri	30
Yo'qlov	31
O'zbek ayoli iltijosi	32
Muhammad Yusufga	34
Har bir qalbda yashar shoir	35
She'riyatga sig'indi	36
Yetkaz	37
Bahor nafasi	38
Jaloliddin Rumiying aytganlari	39
"Jaloliddin Rumiy" romanini o'qib	40
Oymomoga soldim arg'imchoq	41
Beva ayolning bo'zlovlari	42



Marhumga	43
Qatra	44
Intizerlik	46
Qutlov	48
To'rtliklar	49
Orol ketib boradi	50
<i>Bolalarga</i>	
Vatanim bayrog'i	52
Bog'chamizda	53
Orzu	54
Jajji go'zal	55
Chevar qiz	56
Kaptarim	57
Bog'	58
Katta bola	59
Minnatdorlik	60
Varragim	61



*Adabiy-badiiy nashr*

**S. Tursunova**

**ILTIVO**

(She'rlar)

Muharrir

Tex. muharrir

Kompyuter dasturchisi

Musahih

H. Tursunmatov

M. Mirzakarimova

H. Parpiyev

N. Tojimatova

Bosmaxonaga 2005 yil 6 mayda berildi.  
Bosishga 2005 yil 25 noyabrda ruxsat etildi.  
Bichimi 60x84 1/16. Hajmi 4 bosma taboq. Gazeta qog'izi,  
INSL Arial garniturasi.  
Buyurtma 786. Tiraji 1000 nusxa.

"Andijon nashriyot-matbaa" OAJ bosmaxonasida chop etildi.  
Andijon shahri, Navoiy shohko'chasi, 71.